I. YALPI HUDUDIY MAHSULOT

Dastlabki ma'lumotlarga ko'ra, 2023- yil yanvar-sentabr oylarida viloyatda ishlab chiqarilgan yalpi hududiy mahsulotning (YAHM) hajmi 26 092,0 mlrd. so'mni tashkil etdi va 2022- yilning yanvar-sentabr oyiga nisbatan o'sish sur'ati 105,0 foizga teng bo'ldi.

2023- yil yanvar-sentabr oylarida YAHM deflyator indeksi 111,2 foizni tashkil qildi.

Yalpi hududiy mahsulot (YAHM)–*milliy hisoblar asosiy ko'rsatkichi bo'lib, muayyan davrda mintaqaning iqtisodiy hududda joylashgan rezident-institutsional birliklar ishlab chiqarish faoliyatining yakuniy natijasini ifodalaydi. YAHM ishlab chiqarish usulida, iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha yalpi qo'shilgan qiymat hajmi va mahsulotlarga sof soliqlar yig'indisi orqali hisoblanadi.*

YAHMning iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha o'sish sur'atlari, foizda
2023- yil yanvar-sentabr oylarida



Iqtisodiyotning asosiy tarmoqlarida kuzatilgan o'sish sur'atlari YAHM o'sishida asosiy omil bo'lib xizmat qildi. Jumladan, qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi – 106,2 foiz (umumiy ulushning 44,2 foizi), jami xizmatlar - 102,8 foiz (umumiy ulushning 34,2 foizi), sanoat – 105,8 foiz (umumiy ulushning 14,6 foizi) ni tashkil qildi.

YALPI HUDUDIY MAHSULOTNI ISHLAB CHIQARISH

YAHMning iqtisodiy faoliyat turlari bo‘yicha mutlaq o‘sish sur’atlari

(o‘tgan yilning mos davriga nisbatan % da)



YAHM o‘sishiga qishloq, o‘rmon va baliqchilik xo‘jaligi tarmog‘i 2,7 f.p. (2022- yil yanvar-sentabrda – 0,7 f.p.), sanoat tarmog‘i – 0,8 f.p. (2022- yil yanvar-sentabrda – 1,8 f.p.), qurilish tarmog‘i – 0,2 f.p. (2022- yil yanvar-sentabrda – 0,0 f.p.) va xizmat ko‘rsatish sohasi – 0,9 f.p. 2022- yil yanvar-sentabrda – 2,2 f.p.) ijobiy hissa qo‘shdi.

Mahsulotlarga sof soliqlarning o‘sishi hisobiga YAHM 0,4 f.p. (2022- yil yanvar-sentabrda –0,3 f.p.)ga ko‘paydi.

Yanvar-sentabr oylarida viloyat yalpi hududiy mahsulotining iqtisodiy faoliyat turlari bo‘yicha tarkibi

	mlrd. so‘m		*2022- yil yanvar-sentabr oyiga nisbatan foiz hisobida*
	2022- yil yanvar-sentabr	*2023- yil yanvar-sentabr*	
I. Yalpi hududiy mahsulot, jami	**22 344,8**	**26 092,0**	**105,0**
shu jumladan:			
tarmoqlarning yalpi qo‘shilgan qiymati	21 624,0	25 421,4	104,7
mahsulotlarga sof soliqlar	720,8	670,6	112,3
II. Tarmoqlarning yalpi qo‘shilgan qiymati	21 624,0	25 421,4	104,7
Qishloq, o‘rmon va baliqchilik xo‘jaligi	**9 522,6**	**11 224,8**	**106,2**
Sanoat (qurilishni qo‘shgan holda)	**4 649,7**	**5 479,1**	**104,8**
sanoat	3 105,9	3 708,6	105,8
qurilish	1 543,8	1 770,5	102,9
Xizmatlar	**7 451,7**	**8 717,5**	**102,8**
savdo, yashash va ovqatlanish bo‘yicha xizmatlar	1 174,2	1 379,0	104,9
tashish va saqlash, axborot va aloqa	1 249,8	1 468,1	106,2
boshqa xizmat tarmoqlari	5 027,7	5 870,4	101,5

2023- yilning yanvar-sentabr oylarida viloyatning yalpi hududiy mahsulotining o‘sish sur’atiga asosiy ta’sir qishloq, o‘rmon va baliqchilik xo‘jaligi (o‘sish sur’ati 106,2 foiz) va sanoat (o‘sish sur’ati 105,8 foiz) tarmoqlari hissasiga to‘g‘ri kelmoqda. YAHM ishlab chiqarish umumiy hajmining 71,7 foizi kichik tadbirkorlik (biznes) hissasiga to‘g‘ri keldi, bu ko‘rsatkich 2022- yil yanvar-sentabr oylarida ham 71,7 foizni tashkil qilgan.

Yalpi hududiy mahsulotning tarmoqlar bo‘yicha tarkibi, % da

(*jamiga nisbatan foizda*)

2023- yilning yanvar-sentabr oylarida YAHM tarkibida qishloq, o‘rmon va baliqchilik xo‘jaligi sohasining ulushi 44,2 foizni tashkil qildi va 2022- yilning yanvar-sentabr oylariga (44,0 foiz) nisbatan 0,2 punktga kamaydi, sanoatning (qurilishni qo‘shgan holda) ulushi 21,6 foizni tashkil qilib, 2022 - yil yanvar-sentabr oylariga (21,5 foiz) nisbatan 0,1 punktga ko‘pdir. Xizmatlar sohasi ulushi 34,2 foizni tashkil qildi va o‘tgan yilga (34,5 foiz) nisbatan 0,3 punktga kamdir.

2022-yil yanvar-sentabr



2023-yil yanvar-sentabr



Yalpi hududiy mahsulotda kichik biznes ulushi

(yanvar-sentabr oylari, jamiga nisbatan ulushi)

O‘zbekiston Respublikasi bo‘yicha YAIMni shakllantirishda Xorazm viloyatining qo‘shgan hissasi 3,5 % ni tashkil etib, bu o‘tgan yilning shu davriga nisbatan o‘zgarishsiz qolgan.

Yalpi ichki mahsulotda Xorazm viloyatining ulushi, *foizda*



Aholi jon boshiga hisoblangan YAHM 13 238,6 ming so‘mni tashkil etdi va bu ko‘rsatkich o‘tgan yilning mos davriga nisbatan 103,1 foiz o‘sishga erishildi.





2023- yil yanvar-sentabr oylarida yalpi hududiy mahsulot hajmida xizmatlar ulushi 34,2 foiz (2022- yil yanvar-sentabr oylarida 34,5 foiz) ni tashkil qildi.

Savdo, yashash va ovqatlanish bo‘yicha xizmatlarning YAHM tarkibidagi ulushi 5,4 foizni (2022- yil yanvar-sentabr oylarida 5,4 foiz), tashish va saqlash, axborot va aloqa xizmatlari – 5,8 foizni (2022- yil yanvar-sentabr oylarida 5,8 foiz), xizmat ko‘rsatuvchi boshqa tarmoqlar–23,0 foizni (2022-yil yanvar-sentabr oylarida 23,3 foiz) tashkil etdi.

O‘zbekiston Respublikasi va Xorazm viloyatining asosiy makroiqtisodiy ko‘rsatkichlari

(2023- yil yanvar-sentabr)

	O‘zbekiston Respublikasi		*Xorazm viloyati*		*Respublikada Xorazm viloyatining ulushi, % da*	
	mlrd. so‘m	*o‘sish sur’ati % da*	*mlrd. so‘m*	*o‘sish sur’ati % da*	*yanvar-sentabr 2022 - y.*	*yanvar-sentabr 2023- y.*
Yalpi ichki mahsulot (hududiy) mahsulot	750 925,7	105,8	26 092,0	105,0	3,5	3,5
Sanoat	459 919,7	105,7	15 143,4	105,8	3,4	3,3
Iste’mol mollari	132 992,6	107,7	9 559,1	104,0	6,1	7,2
Qishloq, o‘rmon va baliqchilik xo‘jaligi	292 729,2	104,1	19 279,9	106,3	6,6	6,6
Investitsiyalar	226 638,6	111,8	6 744,8	95,4	3,4	3,0
Qurilish ishlari	107 793,3	105,6	4 088,7	102,9	3,8	3,8
Chakana tovar aylanmasi	205 082,3	107,0	8 187,6	103,7	4,1	4,0
Xizmatlar, jami	329 201,5	112,1	9 330,0	112,9	2,9	2,8
Eksport (mln. AQSh doll.)	17 739,4	123,5	226,5	115,0	1,4	1,3
Import (mln. AQSh doll.)	27 014,8	121,2	435,3	109,1	1,8	1,6

2023- yilning yanvar-sentabr oylarida Xorazm viloyati yalpi hududiy mahsuloti 26 092,0 mlrd. so‘mni, respublika yalpi ichki mahsulotdagi ulushi 3,5 foizni tashkil qilib, o‘sish sur’ati o‘tgan yilning shu davriga nisbatan 105,0 foizni tashkil qildi.

2023- yil yanvar-sentabr oylarida sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish hajmi 15 143,4 mlrd. so‘mni (respublikada sanoat mahsulotlarining 3,3 foizini) tashkil etib, o‘tgan yilning shu davriga nisbatan o‘sish sur’ati 105,8 foizni tashkil etdi. 2023-yil yanvar-sentabr oylarida viloyatda 9 559,1 mlrd. so‘mlik xalq iste’mol mollari (respublikada xalq iste’mol mahsulotlarining 7,2 foizi) ishlab chiqarilib, 2022- yil yanvar-sentabr oylariga nisbatan o‘sish sur’ati 104,0 foizni tashkil etdi.

2023- yilning yanvar-sentabr oylarida qishloq, o‘rmon va baliqchilik xo‘jaligi mahsulotlari ishlab chiqarilgan (ko‘rsatilgan xizmatlar) umumiy hajmi 19 279,9 mlrd. so‘mni (respublikada qishloq, o‘rmon va baliqchilik xo‘jaligi mahsulotlarining ulushi 6,6 foiz) tashkil etib, 2022- yilning shu davriga nisbatan o‘sish sur’ati 106,3 foizga etdi.

2023- yil yanvar-sentabr oylarida viloyatning iqtisodiy va ijtimoiy sohani rivojlantirish uchun jami moliyalashtirish manbalari hisobidan 6 744,8 mlrd. so‘m asosiy kapitalga investitsiyalar kiritilib, o‘sish sur’ati 2022- yilning shu davriga nisbatan 95,4 foizni (respublikadagi ulushi 3,0 foiz) tashkil etdi.

2023-yil yanvar-sentabr oylarida 4 088,7 mlrd. so‘mlik (respublikadagi ulushi 3,8 foiz) qurilish ishlari bajarilib, o‘sish sur’ati o‘tgan yilning shu davriga nisbatan 102,9 foizni tashkil etdi.

2023-yilning yanvar-sentabr oylarida chakana savdo tovar aylanmasi 8 187,6 mlrd. so‘mni (respublikadagi ulushi 4,0 foiz), o‘sish sur’ati 2022- yilning shu davriga nisbatan 103,7 foizni tashkil qildi.

2023- yil yanvar-sentabr oylarida bozor xizmatlari ishlab chiqarishning iqtisodiy faoliyat turlari bo‘yicha hajmi 9 330,3 mlrd. so‘mni, (respublikadagi ulushi 2,8 foizni) tashkil qildi va 2022-yil yanvar-sentabr oylariga nisbatan o‘sish 112,9 foizni tashkil etdi.

Tashqi savdo aylanmasi 2023- yilning yanvar-sentabr oylarida 661,8 mln. AQSh dollarini (respublikadagi ulushi 1,5 foizni), o‘sish sur’ati 111,1 foizni, jumladan: eksport – 226,5 mln. AQSh dollarini (respublikadagi ulushi 1,3 foizni), o‘sish sur’ati 115,0 foizni, import– 435,3 mln. AQSh dollarini (respublikadagi ulushi 1,6 foizni), o‘sish sur’ati 109,1 foizni tashkil etdi.